

**ZAMONAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING  
O'QUVCHILAR ONGIGA SALBIY TA'SIRI**

*Oripova Madinabonu Xamidovna*

*Buxoro viloyati Buxoro tuman 30-maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Axborot-psixologik xavfsizlik muammosi tarixan har qanday davlatning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlar va ularning mafkuraviy sohada ifodalanishi bilan vujudga keladi. Zotan, ana shu vaqtdan barqarorlik, rivojlanish bilan birga muayyan xarakterdagi informatsion-psixologik xavf-xatar, ma'naviy tahdidlar ham paydo bo'ladi. Mazkur maqolada axborot xavfsizligi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, sivilizatsiya, axborot huruji, destruktiv g'oya, axborot sektori

**KIRISH.**

Axborot tushunchasi bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u tafakkurimizga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, hayot va undagi minglab taqdirlarni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli quroqla aylandi. Umuman olganda, axborot – moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish uchun foydalilaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir.Qachonlardir ilohiy ma'no kasb etgan so'z, uning qudrati bugungi kunga kelib, dunyo taqdirini hal qilishda eng asosiy rol o'ynaydigan kuchli vosita maqomiga ko'tarildi. Fan-texnika inqilobidan keyin kommunikatsion texnologiyalar hamda axborot infratuzilmalarining katta tezlikdagi taraqqiyoti, xususan, internetning paydo bo'lishi hamda uning qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayot tarziga chuqur kirib borishi axborotni eng qimmat mahsulotga aylantirdi. Darhaqiqat, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan - axborot jahon



bozoridan munosib joy oldi. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi fikrlarni bot-bot esga olinayotgani ham bejizga emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo'shin soni, qurol-yarog' arsenali, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyati katta edi.

Aslini olganda, axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalovchi barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo'lgan. Yalpi axborotlashtirilgan global tizimning dunyoga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga chambarchas bog'ladi. O'z navbatida, axborot olish, uni ishslash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvish tug'dirayotganini ham alohida ta'kidlash joiz. Zero, eng so'nggi avlod kompyuterlari har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli kishi yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalar ichida aloqa o'rnatishi, o'zini qiziqtirgan savollarga bir zumda javob topishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiyu meyorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot huruji, axborot-psixologik urushi qiyofasida o'zini namoyon etmoqda.

Har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiyruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida munosabat bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga mos axborotni qabul qiladi, tahlil etadi. Mushohada va tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada mazkur shaxs u yoki bu tarzdagi nuqtai nazarini shakllantiradi. Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning roli yana



ham oshadi. Atrofimizda fan va texnika taraqqiyoti va uni insonga bo‘lgan ta’siri jamiyat va tabiatning tasiridan kuchli va ustun bo‘lib bormoqda.

Insoniyat tomonidan to‘plangan va yaratilgan axborot hajmi kengaymoqda va har o‘n yillikda yanada kengayib borishi kuzatilmoxda, ammo inson miyasi va uni tashkil etadigan hujayralarning soni o‘zgarmagan, qolaversa ta’limning davomiyligi ortib bormoqda va shuning o’zi informatsion stress ortishi xavfini tug’diradi. Miyaning o‘z imkoniyatlari axborotni qabul qilishi keng, axborot hajmini ortishi xafli, ammo qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qayta ishslash zaruriyati paydo bo‘lsa bu kuchli asab zo‘rqishini olib keladi va infarmatsion stressni keltirib chiqaradi, ya’ni miyaga kirib turgan axborot hajmi va tezligi, bioiogik va ijtimoiy imkoniyatlarga to‘g’ri kelmasligi ham infarmatsion stress yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu yerda axborot hajmi bir omil bo‘lsa, ikkinchidan vaqt kamligi va unga shaxs motivatsiyasi ijtimoiy sabablar ham qo‘shilsa miyani o‘z o‘zini himoyalash mexanizmi ishlamay qoladi, va inson o‘zini informatsion stresslardan muxofaza qilaolmay qoladi.

O‘smirlar bunday holatda eng zaif tasirchan guruh sifatida namoyon boladi. Axborot-psixologik xavfsizlik, avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan, e‘tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, informatsion-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta‘sir etuvchi buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta‘sirchan choralar ko‘rilmasa, destruktiv g‘oyalar milliy xavsizlikka putur yetkazishi mumkin. Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta‘sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Axborotlashgan jamiyat kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot



hamda informatsiontexnologiyalardan oqilona foydalanishga asoslangan sifatiy holatini tavsiflovchi tushuncha.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni “bosqichlar almashinuv” nuqtai-nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo‘lgan iqtisodiyotning to‘rtinchisi - “axborot sektori” yuzaga kelishi bilan bog‘laydilar. Ularning fikriga ko‘ra, industrial jamiyatning asosi bo‘lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rmini axborot va bilimga bo‘shatib beradi.

## **XULOSA**

O‘zbekiston sharoitida axborot almashish jarayoni xavfsizligini ta‘minlash uchun o‘ylaymizki, axborot hurujlari sharoitida quyidagi vositalarga alohida e‘tibor qaratish kerak: ya‘ni axborotlashtirish vositalari faoliyatini, milliy o‘zligimiz va manfaatlarimizga zamonaviy usullar orqali muvofiqlashtirish; shaxs axborot xavfsizligiga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanish; ichki va tashqi siyosatda ro‘y berayotgan voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo‘llash; O‘zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta‘minotini ta‘minlash ishida matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari harakatini birlashtirishga alohida e‘tibor qaratish, barcha axboriy ta‘sirlar doirasini nazoratga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Abduazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –Toshkent: Akademiya, 2008 98 b.
2. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Ibn-Sino, 2004. – 252 b.
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. /Uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Star – Poligraf. 2008